

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

*Andijon yuridik texnikumi
Sud huquqiy faoliyati
2-kurs talabasi
Sobirova Ruxshonabonu*

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsianing ijtimoiy hayotdagi o‘rni ,davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, undagi huquq va majburiyatlar, jamiyat hayotidagi qonun ustuvorligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Bosh qomus, asosiy qonun, manfaatlar, qonuniylik, fuqarolarni himoya qilish, islohotlar, xalq xizmatkori tizimi, adolatga asoslangan davlat.

Asosiy qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni vaqtida sharaflı tariximizga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Eng avvalo, “konstitutsiya nima?” degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiya (“lotincha —constitution” – tuzilish, belgilash)¹ – har bir davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Uning normalari nafaqat davlat qurilishi, davlat hukumati va boshqaruvni tashkil qilish tamoyillarini, shu bilan birga ijtimoiy hayot normalarini ham tartibga soladi. Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalar yuridik asosini hosil qiladi, unga tayangan holda huquqning boshqa barcha tarmoqlari - fuqarolik, moliyaviy, jinoiy, mehnat va boshqalarning poydevori belgilab beriladi. Barcha me’yoriy – huquqiy hujjatlar (qonunlar, farmonlar, qarorlar va h.k) konstitutsiyaga asoslanadi. Shu sababli konstitutsiya barcha qonun hujjatlarining asosiy manbai hisoblanadi. Konstitutsiyada barcha joriy qonunlar uchun asosni tashkil qiladigan g‘oyalar va nizomlar mustahkamlangan. Har bir davlatning huquqiy tizimida kositutsiyaning ustuvorligi ayanan shu bilan belgilanadi. Kositutsiyaning yetakchi o‘rinda ekanligi ko‘rinadiki, mazkur davlatning fuqarolari bilan birga davlat va uning organlari ham unga amal qilishga majbur. Huquq va davlatning aynan shunday mutanosibligi jamiyatdagi konstitutsiya va qonunlarning amaliy ijrosi ta’minlaydi. Inson butun hayoti davomida qonunga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Kishi havo transportida uchganda, uy sotib olganda, mashina haydaganda, oila qurganda, o‘qiganda yoki ishlaganda shu singari hamma hollarda u yoki bu qonunlar ishi tushadi. Bosh qomusimizdan misol qiladigan bo‘lsak. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya>

tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas(23-modda). Ya’ni, O’zbekistonning fuqarolariga bo’lgan davlat mas’uliyatini ta’kidlaydi.O’zbekiston fuqarolari nafaqat O’zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham davlat tomonidan himoya qilinishi kerak. Bu himoya, fuqarolarni yomon muomaladan, haqsiz qarorlardan va xorijiy mamlakatlarda ularga nisbatanadolatsizliklardan himoya qilishni anglatadi. Keyingi band esa O’zbekiston fuqarolarining o‘z vatanidan majburiy ravishda chiqarib yuborilishiga yoki boshqa bir mamlakatga topshirilishiga qarshi kafolat beradi.² O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida davlat inson huquqlari bo‘yicha bir qator majburiyatlar olgan bo‘lib, ularga xususan: davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanliklari, O’zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minalashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi, O’zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlashi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.Bosh qomusimizning 13-moddasida O’zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo‘yilgan.Bu esa inson manfaatlarini qanchalik darajada davlat nazarida muhim va umume’tirof etilganligini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda, mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tubdan isloh qilish, jumladan, inson huquqlarini ta’minalash, tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat hokimiyatini “xalq xizmatkori”³ tizimiga aylantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini yanada rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi doirasida ilgari surilgan keng ko‘lamli vazifalar, xususan,adolatli davlat barpo etish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadrqimmatini yanada samarali ta’minalash kabi muhim maqsadlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularni amalga oshirish uchun zarur huquqiy asoslarni ta’minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ishlari Oliy Majlis tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – bu nafaqat mamlakatning asosiy qonuni, balki erkin va farovon hayot garovi sifatida xalqimizning umid va orzularini

² <https://lex.uz/uz/docs/-3903307?ONDATE=02.03.2022>

³ <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1827>

ifodalaydigan huquqiy asosdir. konstitutsiyada mustahkamlangan demokratik tamoyillar, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi fuqarolarni himoya qilish, ularning erkinliklarini ta'minlash va farovonlikni yaratish uchun muhim yo'l-yo'riqni belgilaydi. Konstitutsiya, davlatning barcha idoralari va fuqarolari uchun qat'iy amal qilishi lozim bo'lgan qonuniy va axloqiy majburiyatlarni belgilash orqali, jamiyatda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning poydevorini yaratadi. Konstitutsiya nafaqat huquqlarni ta'minlaydi, balki fuqarolarni har tomonlama himoya qilish, ularning adolatli va erkin hayot kechirishlariga imkon yaratadi. Shu bois, uning ustuvorligi va samarasiz ishlashini ta'minlash uchun hamma sohalarda islohotlarni amalgalash oshirish, yangi qonun va me'yirlarni ishlab chiqish zarur. Faqatgina konstitutsiyaga asoslangan, demokratik, erkin va adolatli jamiyatda fuqarolar o'z huquqlarini to'liq amalgalash oshirishi va farovon hayotga erishishi mumkin.

Shunday qilib, konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz uchun faqatgina bizning manfatlarimiz yo'lidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olib qolmasdan, balki ma'naviy asos bo'lib, u har bir fuqaroning huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi, jamiyatning rivojlanishiga, barqaror va adolatli davlat qurilishiga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
2. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI KONSTITUSİYASI yangi tahrir I 2023-yil
3. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi O. Karimova, N. Ismatova
4. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi G. M. TANSIKBAYEVA, V. A. KOSTETSKIY
5. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ DARSЛИGI "ADOLAT" 2013 MUALLIFLAR:HUSANOV O. T